



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

11 ЖИЛД, 5 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 11, НОМЕР 5

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 11, ISSUE 5



ТОШКЕНТ-2026

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№5 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2026-5>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'affor
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Yosuke Shamoto
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)
Umarxanova Dildora Sharipxanovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nematov Jo'rabek Nematilloevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННЫЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xusanov Ozod Tillabayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Peshkova Xristina Vyacheslovovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
Sung Un Lee
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ҲУҚУҚРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ruziyev Rustam Jabborovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Borotov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Shomuxamedova Zamira Shoislamovna
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)
Ahmad Issa Altweissi
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)
Mexmonov Kambariddin Miradxanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ҲУҚУҚРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.
Kanton Federal sud markazi (AQSH)
Borut Strazisar
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxanovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Gasanov Mixail Yuriyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Sattorova Gulnoza Djurakulovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Denisov Gleb
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliyev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzayev Aziz
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)
Qo'shayev Nurali Mahmudovich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)


Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirazov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govxerjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

1. Artikov Dilmurod Raxmatillayevich	
MA’MURIY SUD ISHLARINI YURITISH PRINSIPLARINING YURIDIK TAVSIFI.....	5
2. Sayfullaeva Venera Nimatjonovna	
AXBOROT XAVFSIZLIGI SOHASIDA SUN’IY INTELLEKT HUQUQIY KONSEPSIYASINING SHAKLLANISHI.....	14
3. Бойтураев Дилшод Маматкарим угли	
ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ РЕОРГАНИЗАЦИИ ОБЩЕСТВ С ОГРАНИЧЕННОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТЬЮ В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	26
4. Hazratqulov Zahridin Sobirjanovich	
KREDIT SEKTORIDA QONUN BUZILISHLARI HOLATLARIGA QARSHI KURASHNI MUVOFIQLASHTIRISHDA PROKURATURA ORGANLARI FAOLIYATINING NAZARIY-HUQUQIY VA AMALIY JIHATLARI.....	40
5. Khamidov Nurmukhammad Orif ugli, Najimova Jamola Davron qizi	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND THE FUTURE OF CRIMINAL LIABILITY: A COMPARATIVE LEGAL ANALYSIS.....	50
6. Hojiyev Nosirjon Komilovich	
GIYOHVANDLIK VOSITALARINI, ULARNING ANALOGLARINI YOKI PSIXOTROP MODDALARNI ISTE’MOL QILISHGA JALB ETGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK: XORIJIY TAJRIBA.....	59
7. Qo’chqarov Jaloliddin Nurilla o’g’li	
MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARINI BUZISH UCHUN JINOIY JAVOBGARLIKNING KELIB CHIQISHI HAMDA UNING AHAMIYATI.....	67
8. Утаев Хусниддин Хуррамович	
РАҚАМЛИ МУҲИТДА ФИРИБГАРЛИК ЖИНОЯТИНИНГ ОБЪЕКТИВ БЕЛГИЛАРИНИ ЖИНОИЙ ҲУҚУҚИЙ БАҲОЛАШ МАСАЛАЛАРИ.....	74
9. Нодиров Музаффар Ахмадович, Хайдарова Шохида Ахрор кизи	
ОЦЕНИВАНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРОКУРОРОВ.....	81
10. Ummatov Muhammadrasul Tursunovich	
KOMPYUTER AXBOROTIDAN QONUNGA XILOF RAVISHDA FOYDALANISH JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR.....	93
11. Хамдамова Фируза Уразалиевна	
ПРАВО РЕБЁНКА НА ДОСТУП К ИНФОРМАЦИИ И ЗАЩИТУ ОТ ВРЕДОНОСНОГО КОНТЕНТА.....	100
12. Султонов Абдулла Тоштемир ўғли	
ФИШИНГ ВА ОНЛАЙН ФИРИБГАРЛИККА ҚАРШИ КУРАШИШ СОҲАСИДАГИ МИЛЛИЙ ҚОНУНЧИЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.....	108



Sayfullaeva Venera Nimatjonovna,
 Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti doktoranti,
 “Xalqaro huquq va ommaviy huquq fanlari kafedrası” o‘qituvchisi.
 E-mail: venera@uwed.uz

AXBOROT XAVFSIZLIGI SOHASIDA SUN’IY INTELLEKT HUQUQIY KONSEPSIYASINING SHAKLLANISHI

For citation: Sayfullaeva Venera Nimatjonovna. FORMATION OF THE LEGAL CONCEPT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE FIELD OF INFORMATION SECURITY. Journal of Law Research. 2026, 11 vol., issue 5.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.22235119>

ANNATATSIYA

Sun’iy intellektni tartibga soluvchi hujjatlarni ishlab chiqish “sun’iy intellekt” huquqiy tushunchasi bo’yicha aniqlikni talab etadi. Huquqiy doktrinalar “sun’iy intellekt” tushunchasini aniq fanlar kesimida ta’rif beriladi. Sun’iy intellektning mukammalashuvi va axborot xavfsizligi sohasida foydalanishning taraqqiy etishi, ushbu texnologiyalarni xalqaro huquqiy tartibga solish bosqichlarida aniq huquqiy atamani ishlab chiqishni talab etmoqda. Ushbu maqola axborot xavfsizligi sohasida sun’iy intellekt tushunchasi shakllanish mavzusiga bag’ishlanadi. Maqolada axborot xavfsizligi sohasida sun’iy intellekt (sun’iy intellekt texnologiyalarining) qo’llanishi, sun’iy intellekt tushunchasining shakllanish bosqichlari, ilmiy-amaliy nazariyalar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, axborot xavfsizligi, kiberxavfsizlik, huquqiy tartibga solish, Deepfake firibgarligi, virtual hujumlar, kiberhujum, kiberterrorizm, fishing, xizmat ko’rsatishni tarqatishdan bosh tortish (DDoS), shaxsga doir ma’lumotlar.

Сайфуллаева Венера Ниматжонова,
 Докторант Университета мировой экономики и дипломатии,
 преподаватель кафедры международного права и публично-правовых дисциплин.
 E-mail: venera@uwed.uz

ФОРМИРОВАНИЕ ПРАВОВОЙ КОНЦЕПЦИИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ.

АННОТАЦИЯ

Разработка документов, регулирующих использование искусственного интеллекта, требует уточнения правового понятия «искусственный интеллект». Правовые доктрины определяют понятие «искусственный интеллект» в контексте конкретных наук. Развитие искусственного интеллекта и его использование в сфере информационной безопасности требует разработки четкого правового термина на этапах международно-правового регулирования этих технологий. Данная статья посвящена формированию концепции искусственного интеллекта в области информационной безопасности. В статье анализируется применение искусственного

интеллекта (технологий искусственного интеллекта) в сфере информационной безопасности, этапы формирования концепции искусственного интеллекта, а также научно-практические теории.

Ключевые слова: искусственный интеллект, информационная безопасность, кибербезопасность, правовое регулирование, мошенничество с использованием дипфейков, виртуальные атаки, кибератака, кибертерроризм, фишинг, распределенная атака типа «отказ в обслуживании» (DDoS), персональные данные.

Sayfullaeva Venera Nimatjonovna,

Doctoral student at the University of World Economy and Diplomacy,
Lecturer at the Department of International Law and Public Law Disciplines.

E-mail: venera@uwed.uz

FORMATION OF THE LEGAL CONCEPT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE FIELD OF INFORMATION SECURITY

ANNOTATION

The development of documents regulating artificial intelligence requires clarity in the legal concept of “artificial intelligence”. Legal doctrines define the concept of “artificial intelligence” in terms of specific sciences. The development of artificial intelligence and its use in the field of information security requires the development of a clear legal term at the stages of international legal regulation of these technologies. This article is devoted to the topic of the formation of the concept of artificial intelligence in the field of information security. The article analyzes the application of artificial intelligence (artificial intelligence technologies) in the field of information security, the stages of formation of the concept of artificial intelligence, and scientific and practical theories.

Keywords: artificial intelligence, information security, cybersecurity, legal regulation, Deepfake fraud, virtual attacks, cyberattack, cyberterrorism, phishing, distributed denial of service (DDoS), personal data.

Sun'iy intellekt axborot xavfsizligi sohasida real vaqt rejimida ishlash, hujumlarni bashorat qilish, tahdidlarni oldini olish, autentifikatsiya jarayonlarini avtomatlashtirish bilan bir qatorda, kiberhujumchilar uchun asosiy instrument sifatida foydalanilmoqda. Sun'iy intellektning rivojlanishi axborot xavfsizligi sohasiga katta ta'sirni olib kelib, sun'iy intellektdan xalqaro jinoiy maqsadlarda foydalanish (Deepfake firibgarligi, onlayn odam savdosi, shantaj va tovlamachilik, maxfiy kodlangan parollarni viruslar orqali ochish, avtomatlashtirilgan xakerlik yordamida virtual hujumlar uyushtirish, kiberhujum, kiberterrorizm, fishing va boshqalar) suratlari jadal ravishda o'sib bormoqda va axborot xavfsizligini ta'minlash darajasini oshirish zaruriyatga bo'lgan muhtojlik sezilmoqda. Axborot xavfsizligini ta'minlash hamda sun'iy intellektni rivojlantirish maqsadida xavflarni kamaytirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida tadqiqotchilar tomonidan milliy, mintaqaviy va xalqaro darajalarda normativ-huquqiy bazani rivojlantirish, davlat idoralari va tijorat tashkilotlari o'rtasida mustahkam hamkorlikni o'rnatish, mintaqadagi raqamli tafovutni kamaytirish va orqada qolgan davlatlarning mavqeini yaxshilash imkonini berish va axborot infratuzilmasini himoya qilish maqsadida mutaxassislar, davlat idoralari va xususiy kompaniyalar o'rtasidagi hamkorlikni o'rnatish, shuningdek, inson kapitalini rivojlantirish va kiberxavfsizlik sohasida yangi, raqobatbardosh IT mutaxassislari avlodini tayyorlash raqamli transformatsiyaning davomiy muvaffaqiyatiga hissa qo'shish uchun kiberxavfsizlik bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash takliflar berilayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Hozirda axborot xavfsizligi sohasida viruslar, xakerlik hujumlari, xizmat ko'rsatishni tarqatishdan bosh tortish (DDoS) kiberhujumlari, ma'lumotlar manipulyatsiyasi, kibertaqiblar, kiberurushlar va boshqa texnik tahdidlar, ijtimoiy omillar, tashkiliy xavflar, huquqiy muammolar va psixologik jihatlar bo'yicha muammolar mavjud. Axborot xavfsizligi sohasida xavfsizlik, kiberfazoda va kibermakondagi nizolarni xalqaro huquq normalariga asoslangan holda tinch yo'l bilan hal qilish, axborotlar almashinuvi jarayonlarini optimallashtirish va “axborot qurollari”ni

kamaytirish, ma'lumotlar maxfiyligini buzish va boshqa axborot xavfsizligi sohasi bilan bog'liq muammolarni hal qilish madsadida yangi, imperativ xarakterga ega bo'lgan xalqaro tamoyillar va konvensiyalar ishlab chiqish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish eng ma'suliyatli vazifa sifatida qolmoqda.

IBM ma'lumotlarining buzilishi bo'yicha hisobot intellektual mulk va mijozlar mulki ma'lumotlarini o'g'irlash va boshqa tendensiyalarni tahlil qiladi, xavfsizlik va biznes rahbarlariga xavfni yaxshiroq boshqarish va yo'qotishlarni cheklash imkonini beruvchi tushunchalarni taqdim etadi. Ponemon instituti tomonidan o'tkazilgan va IBM tomonidan tahlil qilingan bu yilgi tadqiqotning eng yaxshi natijalari orasida sun'iy intellekt uchun xavfsizlik va boshqaruv holati, soya sun'iy intellektning tarqalishi va xavf profili, sun'iy intellekt bilan bog'liq xavfsizlik hodisalarida nishonga olingan ma'lumotlar turlari, tashkilotlarga buzilishlarning davomiyligi, kvant xavfsizlik vositalaridan foydalanishdan xarajatlarni tejash, sun'iy intellektga asoslangan hujumlar bilan bog'liq buzilish xarajatlari, mijozlarga o'tkaziladigan buzilish xarajatlari miqdori kabi tushunchalarni taqdim etadi [1]. Bundan tashqari, **“Raqamli 2024: Global umumiy hisobot”** [2], agentlar, ikkinchi uchuvchilar va chatbotlarning ma'lumotlarni oshkor qilishini oldini oluvchi **“Varonis”** [3], kiber urushlarning vayronkor tabiati, to'lov dasturlari aktyorlarining rivojlanayotgan taktikasi, axborot o'g'irlovchilarining tobora ko'payib borayotgan oqimi, chetga qurilmalarni nishonga olishning ko'payishi, bulutli infratuzilmalardagi zaifliklar haqida ma'lumot beruvchi **“Kiberxavfsizlik holati 2025”** hisoboti doimo o'zgarib turadigan tahdidlar manzarasiga moslashish, hujumchilardan oldinda bo'lish va samarali himoya qilish uchun amaliy tushunchalarni taqdim etadi [4].

Yuqorida keltirilgan xalqaro hisobotlar natijasi birinchi o'rinda xalqaro huquqda sun'iy intellektning huquqiy maqomi (sun'iy intellekt tushunchasi), xalqaro javobgarlik, sun'iy intellekt yordamida yaratilgan kontentlarga bo'lgan intellektual mulk huquqi, axloqiy standartlar, algoritmik shaffoflik, xavfsizlik, ma'lumotlar (axborotlar) maxfiyligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish kabi dolzarb va o'z yechimi topmagan savollar (xalqaro muammolar) mavjudligini ko'rsatmoqda. Xalqaro doiradagi ushbu dolzarb muammolar aniq maqsadlarga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni talab etadi. Hozirda **Gabriel Hallevy** [5], **Miriam Stankovich** [6], **Daniel E. Ho** [7], **Sabine Gless** [8], **Amedeo Santosuosso** [9], **Katalina Goanta**, [10] **Taliya Xabrieva** [11], **Ildar Begishev** [12], **Zarina Xisamova** [13], **Irina Filipovalar** [14], g'arb tadqiqotchi mutaxassislari **Rayan Abbott** [15], **Frank Pasquale** [16], rossiyalik olimlar **Igor Ponkin**, **Alena Redkina** [17], **Petr Morxat** [18], **Mixail Zagaynov** [19], **Kseniya Belikova** [20], **Atabek Atabekov** [21], o'zbek olimlari **Akmal Saidov** [22], **Nugman Nugmanov**[23], **Bahodir Ismailov** [24], **Feruza Xamdamova** [25], **Laviza Isxakova** [26], **Surayyo Adilxodjayeva** [27], tomonidan o'rganilmoqda. Sun'iy intellekt zamonaviy tadqiqotchilari **Jeffri Xinton**, **Jon Xopfild** **Yoshua Bengio**, **Yann LeCunlar** tomonidan yangi sun'iy intellekt nazariyalari paydo bo'lmoqda. 2024-yil Jeffri Xinton, Jon Xopfild sun'iy intellekt bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'lishdi [28].

XIX asrning 30-40 yillarida sun'iy intellekt nazariyasining boshlanish davri hisoblanadi. Sun'iy intellekt konsepsiyasi tarixan shakllanish davri o'rganish va ishlab chiqishda **Alan Turing (1912–1954)**, **Uorren MakKallox va Uolter Pitts (1943)** , **Jon Makkarti (1927–2011)** , **Marvin Minski (1927–2016)** fundamental hissa qo'shgan taniqli olimlardir. 1930-yilda “Hisoblanadigan funksiyalarning intuitiv tushunchasi qisman rekursiv funksiyalar bilan aniqlanishi yoki real dunyoda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan har bir hisoblash Turing mashinasi tomonidan samarali bajarilishi mumkin degan taxmin” haqidagi bayonot birinchi marta Alonzo Cherkh tomonidan shakllantirilgan. Ushbu tezis Cherkh tezisi yoki Cherkh-Tyuring tezisi deb ataladi. Alonzo Cherkh “Gipotezani isbotlab bo'lmaydi. Rekursiv funksiyalar quyidagi taxminlarni olgandan so'ng hisoblanishi mumkin: har bir funksiya hisoblanishi kerak. “F” hisoblanadigan funksiya bo'lsin va “F” ga ba'zi elementar amallarni bajargandan so'ng, u yangi “G” funksiyasini o'zgartiradi keyin bu “G” funksiyasi avtomatik ravishda hisoblanadigan funksiya aylanadi. Yuqoridagi ikkita taxmindan keyin keladigan har qanday funksiya hisoblanadigan funksiya sifatida ko'rsatilishi kerak” deya fikrlar bildiradi [29]. Alonzo Cherkh fikrlari 2024-yillarga kelib o'z tasdig'ini topdi. Axborotlar (algoritmalar, neyronlar) bir-biri bilan gallyutsinatsiyalashib (F elementlar), yangi axborotni (G funksiya) taqdim etadi. Shu o'rinda huquqshunoslarni qiziqtirgan ikki savol paydo bo'ladi: axborot shaffofligi va

xavfsizligi. Sun'iy intellektni nazariy jihatdan o'rganishda "hisoblanadigan funksiya", "tasodifiylik g'oyasi (tasodifiylik g'oyasi induktiv mantiqning muhim tushunchasi bo'lib, bashorat qilish va tushuntirish epistemologiyasiga ta'siri tufayli alohida falsafiy qiziqish uyg'otadi.)" va "taxminlar" (bashoratlar) kabi iboralarga duch kelamiz [30]. Sun'iy intellektni yaratish imkoniyati haqidagi birinchi g'oyani ilgari surgan Alan Turing o'zining sun'iy intellekt haqidagi g'oyalarni quyidagi olimlarning ilmiy ishlariga asoslagan: Nicholas Reschering "Tasodifiylik tushunchasi" (Lehigh universiteti, Baytlahm, Pensilvaniya); "Aqlli mashina" A.M.Turing (1912-1954) **"Mantiqiy hisoblash mashinasi - ular asosan mashina prinsipial jihatdan nima qilish uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkinligini ko'rib chiqmoqchi bo'lganimizda, unga cheksiz vaqt va cheksiz saqlash imkoniyatini berishga tayyor bo'lganimizda qiziqish uyg'otadi"** va **"fikrlash mashinasini yaratish imkoniyatiga ishonishning katta ijobiy sababi shundaki, mashinani odamning har qanday kichik qismida taqlid qilish mumkin** [31]; Alonza Churchning "Tasodifiy ketma-ketlik konsepsiyasi haqida" asarida muallif tomonidan Turing natijalarini kuchli qo'llab-quvvatlanganligi ta'kidlangan [32]. **Alan Turing, Nikolas Resher, Robin Gandi, Alonza Cherkh, Rudolf Karnap [33], Alfred Uaytxed va Bertrand Russel [34], D. Hilbert va W. Ackermann [35], GODEL. K, B. Jack Copeland, Oron Shagrir** va boshqa ilmiy tadqiqotchilar sun'iy intellekt konsepsiyasining paydo bo'lishida katta rol o'ynadilar. 1943-yilda **Uorren S. Makkullox va Uolter Pitts** sun'iy neyron tarmog'ining tematik modelini ko'rsatuvchi "Asab faoliyatidagi immanent g'oyalarning mantiqiy hisob-kitobi" nomli ilmiy asar yozdilar. Bu sun'iy intellektni yaratishga asos soldi [36]. 1950-yilda Oksford universitetining "Mind" (Fikr, Aql) jurnalida Alan Turingning sun'iy intellekt mavzusidagi "Hisoblash mashinalari va intellekt" nomli muhim maqolasi nashr etiladi va u o'zining Turing testini jamoatchilikka taqdim etdi. Uning ishida **"mashina" va "fikrlash" atamalarining ma'nosi ta'riflari ko'rib chiqildi. Uning so'zlariga ko'ra, ta'riflar so'zlarning normal ishlatilishini iloji boricha aks ettirish uchun shakllantirilishi mumkin, ammo bu munosabat xavflidir.** Agar "mashina" va "fikrlash" so'zlarining ma'nosi ularning qanday ishlatilishini o'rganish orqali topilsa, "Mashinalar o'ylay oladimi?" degan savolning ma'nosi va javobini Gallup so'rovi (bir guruh odamlardan ma'lum bir mavzu haqida nima deb o'ylashlarini bilish uchun so'raladigan savollar seriyasi) kabi statistik so'rovda izlash kerak degan xulosadan qochish qiyin. Ammo bu bema'nilik. Bunday ta'rif berishga urinish o'rniga, men savolni unga chambarchas bog'liq bo'lgan va nisbatan aniq so'zlar bilan ifodalangan boshqa savol bilan almashtiraman. Umumiyroq xulosa shuki, "mashina" va "mexanik" tushunchalariga ehtiyot bo'lish kerak" degan fikrlar berilgan. Turing mexanik jarayon tushunchasini Turing mashinalari nuqtai nazaridan aniq tavsiflab bergani bilan mashhur [37]. Britaniyalik matematik va logist Robin Oliver Gandi Turingning tahlilini umumlashtiradi va "hisoblash inson tomonidan amalga oshirilayotganiga" murojaat qilinadigan "muhim qadamlar" mavjud" deya fikrlar qoldiradi [38].

1955-yilda **Jon Makkarti, Marvin Minski, Nataniel Rochester va Klod Shennon** "Sun'iy intellekt bo'yicha Dartmout yozgi tadqiqot loyihasi uchun taklif" nomli ilmiy tadqiqotni tayyorlaydi [39]. 1956-yil 15-iyunda **Allen Nyuell va Herbert A. Saymon** "Mantiq nazariyasi mashinasi murakkab axborotni qayta ishlash tizimi" nomli ilmiy dasturni Dartmut konferensiyasida e'lon qiladi. Ushbu konferensiyada Jon Makkarti tomonidan "sun'iy intellekt" atamasi kiritildi va bu konsepsiya Marvin Minski, Nataniel Rochester va Klod Shennon tomonidan tasdiqlandi [40]. 1956-yilda amerikalik matematik va kompyuter olimi Jon Makkarti Stenford universitetida Stenford sun'iy intellekt laboratoriyasini (SAIL) tashkil etadi va u yerda LISP kompyuter dasturlash tilini yaratdi. U "Sun'iy intellekt nima va aql nima" savollarini yaratdi. U sun'iy intellekt aqlli mashinalarni, ayniqsa aqlli kompyuter dasturlarini yaratishning fani va muhandisligi ekanligini ta'kidladi. Jon Makkarti "inson aqlini tushunish uchun kompyuterlardan foydalanishning o'xshash vazifasi bilan bog'liq, ammo sun'iy intellekt biologik jihatdan kuzatiladigan usullar bilan cheklanib qolishi shart emas. Aql-idrok dunyodagi maqsadlarga erishish qobiliyatining hisoblash qismidir. Odamlarda, ko'plab hayvonlarda va ba'zi mashinalarda aql-idrokning turli ko'rinishlari va darajalari uchraydi. Muammo shundaki, biz hali qanday hisoblash protseduralarini aqlli deb atashni xohlayotganimizni umuman tavsiflay olmaymiz. Biz aqlning ba'zi mexanizmlarini tushunamiz, boshqalarini esa tushunmaymiz [41]" deya fikrlar beradi.

1965-1987 yillar sun'iy intellekt ikkinchi davri - sun'iy intellekt "neyronlar", "agentlar" nazariyalarining paydo bo'lish davri deb belgilashimiz mumkin. Sababi 1969-yil **Marvin Minsky va Seymour Papert** tomonidan **"Perseptronlar"** nomli kitob nashr etiladi [42]. Ushbu kitob sun'iy intellektda tarixiy burilish yasadi va intellekt neyronga o'xshash mavjudotlar tarmoqlari faoliyatidan paydo bo'lishi mumkin degan fikrga qaytdi. Minsky va Papert miyaning modellari sifatida qaralishi mumkin bo'lgan hisoblash mashinalari sinfining cheklovlarini ko'rsatadigan matematik tahlilni taqdim etdilar. Minsky va Papert 1987-yilda parallel kompyuterlarning holatini muhokama qiladigan yangi bob qo'shdilar va markaziy nazariy qiyinchilikni ya'ni tarmoqda individuallikka ega "obyektlar" yoki "agentlar" qanday paydo bo'lishi mumkinligini chuqurroq tushunishni ta'kidladilar [42].

Jon R. Searle (1980) ilmiy tadqiqotlarida insonning kognitiv qobiliyatlarini kompyuterda simulyatsiya qilish bo'yicha so'nggi sa'y-harakatlarga qanday psixologik va falsafiy ahamiyatdan kelib chiqib, tadqiqotchi "kuchli" sun'iy intellektni "kuchsiz" yoki "ehtiyotkor" sun'iy intellektdan ajratish foydali deb biladi. Zaif sun'iy intellektga ko'ra, ongni o'rganishda kompyuterining asosiy qiymati kuchli vosita bo'lib, gipotezalarini yanada qat'iy va aniq tarzda shakllantirish va sinab ko'rish imkonini berishini, ammo kuchli sun'iy intellektga ko'ra, kompyuter shunchaki ongni o'rganishda vosita emas, aksincha, to'g'ri dasturlashtirilgan kompyuter aslida ongdir, ya'ni to'g'ri dasturlar berilgan kompyuterlar tom ma'noda boshqa kognitiv holatlarni tushunishi va ularga ega bo'lishi mumkinligi, kuchli sun'iy intellektda dasturlashtirilgan kompyuter kognitiv holatlarga ega bo'lgani uchun dasturlar shunchaki psixologik tushuntirishlarni sinab ko'rish imkonini beradigan vositalar emas, aksincha, dasturlarning o'zi tushuntirishlardir degan fikrlarni qoldiradi [43].

Professor Wolfgang Ertel sun'iy intellektning aniq maqsadi intellektni tushunish va aqli tizimlarni yaratish deb hisoblaydi. Biroq, bu maqsadga erishish yo'lida qo'llaniladigan usullar va rasmiyatchiliklar aniq belgilanmagan, bu esa bugungi kunda sun'iy intellektni ko'plab kichik fanlardan iborat bo'lishiga olib kelishi, sun'iy intellekt kursidagi qiyinchilik juda ko'p chuqurlik va aniqlikni yo'qotmasdan iloji boricha ko'proq sohalarni o'qitish [44] kerakligini ta'kidlaydi.

Fikrimizcha axborot xavfsizligi sohasida sun'iy intellekt tushunchasini shakllantirishda Minsky va Papert fikrlari "agent", "neyron"ning robotlar, dronlar, chat-botlarda qo'llashdagi tartibini ishlab chiqishni, Jon R. Searlening nazariyalari kelajakda sun'iy intellektni uchu toifaga ajratib tasniflashimiz kerakligini, professor Wolfgang Ertel fikrlari esa sun'iy intellektdan foydalanganda aniq maqsadlarga yo'naltirilgan qoidalarga asoslanishi kerakligini yana bir bor isbotlaydi.

XX asrning 90-yillaridan boshlab zamonaviy sun'iy intellekt davri boshlanishidir. Sun'iy intellekt shu davrdan tasniflanib boshlaydi. Sun'iy intellekt (tor (zaif), umumiy, super) asosan funktsionallik xususiyatlaridan (reaktiv, cheklangan xotira, ong nazariyasi, o'zini anglash), texnologik turlaridan kelib chiqib tasniflanadi. **Turing mukofoti sovrindori Yoshua Bengio boshchiligid**a yuzdan ortiq sun'iy intellekt mutaxassislari tomonidan yozilgan hamda o'ttizdan ortiq mamlakat va xalqaro tashkilotlar tomonidan qo'llab-quvvatlanuvchi, shuningdek sun'iy intellekt tizimlarining imkoniyatlari va xavflari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning birinchi keng qamrovli sharhi hisoblanuvchi hamda sun'iy intellekt xavfsizligi bo'yicha eng yirik global hamkorlikni ifodalovchi birinchi **"Xalqaro Sun'iy intellekt Xavfsizligi Hisoboti"**da ham umumiy maqsadli sun'iy intellekt xavflarini uch toifaga (zararli foydalanish xavflari, nosozliklar xavfi va tizimli xavflar) ajratganini ko'rishimiz mumkin [45]. 1996-yil DeepMind kompaniyasining AlphaGo dasturi Janubiy Koreyalik eng kuchli Go o'yinchisi Li Sedolni mag'lubiyatga uchratadi. 1997-yil may oyida IBMning Deep Blue kompaniyasi oltita o'yinlik shaxmat marafonida Garri Kasparovga qarshi g'alabasi hisoblash sohasida burilish nuqtasini belgilab, superkompyuterlar va sun'iy intellekt inson tafakkurini simulyatsiya qila oladigan kelajakni boshlab berdi. Deep Blue shunchaki shaxmat olami uchun katta yutuq emas edi. Uning asosiy texnologiyasi superkompyuterlarning yangi farmatsevtika vositalarini kashf etish, moliyaviy xavfni baholash, ulkan ma'lumotlar bazalaridagi naqshlarni aniqlash va inson genlarining ichki ishlashini o'rganish uchun zarur bo'lgan murakkab hisob-kitoblarni bajarish qobiliyatini oshirdi [46]. Garri Kasparov "Insoniyat tarixida birinchi marta men sun'iy intellektga o'xshash narsani ko'rdim" degan fikrlarni qoldiradi.

Yuqorida keltirilgan nazariy fikrlar va aniq ilmiy tadqiqotlar yordamida “sun’iy intellekt” tushunchasi shakllanib, zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan “Sun’iy intellektdan foydalanish bo’yicha Yevropa axloqiy xartiyasi” (2018) [47], YuNESKOning “Sun’iy intellekt etikasi bo’yicha tavsiyasi” (2021) [48], ISO/IEC standartlari (2022) [49], Yevropa Ittifoqining “Sun’iy intellekt to’g’risida qonun” (2024) [50] kabi xalqaro hujjatlarni ishlab chiqishda foydalanilganligini aytishimiz mumkin. Jumladan, “Yevropa axloq xartiyasi”da sun’iy intellekt - bu insonning kognitiv qobiliyatlarini mashina yordamida qayta tiklashga qaratilgan ilmiy usullar, nazariyalar va texnikalar to’plami. Hozirgi rivojlanish mashinalarning ilgari odamlar tomonidan bajarilgan murakkab vazifalarni bajarishiga intiladi deya ta’riflanadi [51].

YuNESKOning “Sun’iy intellekt etikasi bo’yicha tavsiyasi”da sun’iy intellekt tizimlariga ma’lumotlar va axborotni aqlli xatti-harakatlarga o’xshash tarzda qayta ishlash qobiliyatiga ega bo’lgan va odatda fikrlash, o’rganish, idrok etish, bashorat qilish, rejalashtirish yoki nazorat qilish jihatlari o’z ichiga olgan tizimlar sifatida yondashiladi. Sun’iy intellekt tizimlari - bu o’rganish qobiliyatini yaratadigan va moddiy va virtual muhitda bashorat qilish va qaror qabul qilish kabi natijalarga olib keladigan kognitiv vazifalarni bajarish qobiliyatini yaratadigan modellar va algoritmlarni birlashtirgan axborotni qayta ishlash texnologiyalari sifatida ta’riflanadi. Sun’iy intellekt tizimlari bilimlarni modellashtirish va ifodalash, ma’lumotlardan foydalanish va korrelyatsiyalarni hisoblash orqali turli darajadagi avtonomiya bilan ishlash uchun mo’ljallangan. Sun’iy intellekt tizimlari bir nechta usullarni o’z ichiga oladi: i) mashinada o’rganish, jumladan, chuqur o’rganish va mustahkamlash bo’yicha o’rganish; ii) rejalashtirish, jadval tuzish, bilimlarni ifodalash va mulohaza yuritish, qidiruv va optimallashtirishni o’z ichiga olgan mashinada fikrlash. Sun’iy intellekt tizimlari kiberfizik tizimlarda, jumladan, narsalar interneti, robot tizimlari, ijtimoiy robototexnika va inson-kompyuter interfeyslarida qo’llanilishi mumkin, bu esa sun’iy intellekt tizimlari ishlaydigan muhitda boshqaruv, idrok etish, sensorlar tomonidan to’plangan ma’lumotlarni qayta ishlash va aktuatorlarning ishlashini o’z ichiga oladi. YuNESKOning sun’iy intellekt etikasi bo’yicha tavsiyasida sun’iy intellektning yagona ta’rifini berish maqsadiga ega emasligi, chunki bunday ta’rif vaqt o’tishi bilan texnologik rivojlanishga muvofiq o’zgarishi kerakligi aytiladi. Tavsiya maqsadi markaziy axloqiy ahamiyatga ega bo’lgan sun’iy intellekt tizimlarining xususiyatlarini ko’rib chiqishga qaratiladi [52].

Tavsiyadagi fikrlar Marvin Minsky fikrlari takrorlanganligini ko’rsatadi. Chunki olimning “Aqlli mashinalar davri: sun’iy intellekt haqida fikrlar” tadqiqot ishida “sun’iy intellekt” shunchaki ushbu tadqiqotga bergan nom bo’lib, tadqiqotning yo’nalishi o’zgarib turishi, sun’iy intellekt tadqiqotlari bir necha o’n yilliklar ichida ulkan yutuqlarga erishganligi, sun’iy intellekt tadqiqot loyihasi foydali yangi kashfiyot qilganda, bu mahsulot odatda tezda o’ziga xos nomga ega bo’lgan yangi ilmiy yoki tijorat ixtisosligini shakllantirishi, robototexnika, naqshni aniqlash, ekspert tizimlari, avtomatik teoremani isbotlash, kognitiv psixologiya, matnni qayta ishlash, mashina ko’rish, bilim muhandisligi, ramziy amaliy matematika va hisoblash tilshunosligi sohalarida sun’iy intellektning taraqqiy etishini aytadi [53].

